



\_\_\_\_\_ *hokimligi*  
*maktabgacha va maktab ta'limi*  
*boshqarmasi*

\_\_\_\_\_ *maktabgacha va*  
*maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi*  
*\_\_\_-umumiy o'rta ta'lim maktabi*  
*ona tili va adabiyot fani o'qutuvchisi*  
\_\_\_\_\_ *ning*

*20\_\_ - 20\_\_ - o'quv yiliga 9 – sinf*  
*adabiyot fanidan II chorak uchun*

***DARS***  
***ISHLANMALARI***

**“TASDIQLAYMAN”**

**O‘IBDO‘** \_\_\_\_\_

**20\_\_-20\_\_-o‘quv yili uchun tuzilgan 9-sinf adabiyot fani II chorak  
taqvimiy mavzu rejasi**

<b>№</b>	<b>Mavzu nomi</b>	<b>Soat</b>	<b>Sana</b>	<b>Izoh</b>
<b>II chorak</b>				
1.	Oybek. “Uzoqdan turib...” she’ri	1		
2.	Oybek. “Na'matak” she’ri	1		
3.	Oybek. "Yig‘i kelmaydi sira”, “Yor keldi..” she’rlari	1		
4.	Odil Yoqubov. Mirzo Ulug`bek – ilm-fan homiysi. Ulug`bek davrida siyosiy vaziyat	1		
5.	Odil Yoqubov. “Ulug‘bek xazinasi” romani. 1-qism	1		
6.	Odil Yoqubov. “Ulug‘bek xazinasi” romani. 2-qism	1		
7.	Odil Yoqubov. “Ulug‘bek xazinasi” romani. 3-qism	1		
8.	Odil Yoqubov. “Ulug‘bek xazinasi” romani. 4-qism	1		
9.	<b>Nazorat ishi-3</b>	1		
10.	Nodir Jonuzoqning “Besh ganj”, “Egiz el” she’rlari Boydulla Sarno‘g‘ayevning “Salom” she’ri	1		
11.	O‘ljas Sulaymonning “Qiz quvdi” she’ri, Maxtumqulining “Ko`ring” she’ri	1		
12.	Loyiq Sheralining “Ey tilsiz daraxt”, “Ertani o`ylab” she’rlari, Kengesboy Karimovning “Yoshlik so`qmog`i” she’ri	1		
13.	<b>Nazorat ishi-4</b>	1		
14.	Takrorlash	1		

<b>Sana:</b>				
<b>Sinf:</b>				

**Mavzu: Oybek. “Uzoqdan turib...” she’ri**

**Darsning maqsadi:**

**Ta’limiy:** o‘quvchilarga mavzu bo‘yicha nazariy ma’lumotlar berish, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish, o‘quvchilarga asarni o‘qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g‘oyasini (yoki g‘oyalarini) ochib berishdagi, voqealar rivojidadagi o‘rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so‘zlari, xatti-harakatlariga) e’tibor berish, o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko‘nikmalarini boyitish..

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:**

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va unda faol ishtirok etish;

maktabda va maktabdan tashqari adabiy-badiiy yo‘nalishdagi tadbirlarda (turli mavzudagi ko‘rik-tanlovlar, musobaqalar va h.k.) faol ishtirok etish, atrofdagi insonlar bilan xushmuomalada bo‘lish; badiiy asarlarda xilma-xil shakl va ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladigan qahramon va personajlarning ijtimoiy-ma’naviy, fuqarolik, insoniylik va boshqa burch hamda huquqlarini bajarishlaridagi o‘ziga xosliklar (halol, vijdonli, jonkuyar, loqayd...) ga qarab turib xolis va jiddiy mulohaza yuritish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

badiiy adabiyot va san’atda aks etgan vatanparvarlik, insonparvarlik g‘oyalarini, umuminsoniy va milliy qadriyatlar tasviridagi o‘ziga xosliklarni anglash, ulardan ta’sirlanish, ulardagi go‘zallik va ezgulikdan o‘rnak olishga intilish, yovuzlik va xunuklikdan nafratlana olish;

**Darsning metodi:** og‘zaki (suhbat, savol-javob)

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

<b>№</b>	<b>Bo‘limlar</b>	<b>Vahti</b>
<b>1</b>	Tashkiliy qism	3 daqiqa
<b>2</b>	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
<b>3</b>	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
<b>4</b>	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
<b>5</b>	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
<b>6</b>	Uyga vazifa	2 daqiqa
<b>Jami</b>		<b>45 daqiqa</b>

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so‘rash:** a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek 1905-yil 10-yanvarda Toshkentning qadimiy Gavkush mahallasida, bo'zchi oilasida tug'ilgan. Dastlab eski usuldagi maktabda, keyinchalik "Namuna" maktabida va Navoiy nomidagi ta'lim-tarbiya texnikumida o'qigan. Oliy ma'lumotni hozirgi O'zbekiston Milliy universitetida iqtisodiyot yo'nalishi bo'yicha olgan. Ammo keyinchalik ijodga muhabbat uni adabiyot sari yetakladi.

Ilm-fanga qo'shgan salmoqli hissasi uchun O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi (1943) darajasini olgan.

Oybek asos solgan "O'zbek tili va adabiyoti" (ilk nomi "O'zbek tili va adabiyoti masalalari") jurnali hozirga qadar nashr etiladi.

Adib bu jurnalda 1958-yildan to umrining oxiriga qadar bosh muharrir vazifasida ishlagan. U "O'zbekiston xalq yozuvchisi" unvoni, "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan

mukofotlangan. Yozuvchi ijodining eng avj pallasida og'ir xastalikka chalinadi. Shunda ham ijoddan to'xtamaydi. Bu haqida turmush o'rtog'i Zarifa Saidnosirova shunday yozadi: *\*1951-yil - Oybekning xasta bolgan yili. Hozir uning oyoq-qoliari yaxshi; faqat o'ng qo'lining ikki barmog'lashmaydi. U endi sol qo'li bilan yozishga urinadi. Shu tarzda Oybek "Haqgo'ylar" dostonini yozdi. "Nur qidirib" va "Quyosh qoraymas" asariari ustida ishiay boshiadi. So7 qo'l bifan yozish, tabiiy, oson emas. Shuning uchun ham endi unga yordam bera boshlayman. Men institutdan kelgach, Oybek gapiradi, men yozaman... Oybek o'sha kezlarda mening ishdan kelishimni oshiqib kutardi. "Ovqatlan, choy ich, yozamiz. Miyamda hammasi tayyor, taxtlangan, tezroq aytib bersam", - der edi u shoshib. Men ikki-uch soat davomida yozaman. Keyin: "Bas, Oybek, charchadingiz!" - deyman. "Yo'q, charchamadim, yana jinday sabr qil", - deydi u. "Sizga ko'p ishiamog' mumkin emas", - desam, quioq solmaydi..."*

Oybekning "Tuyg'ular", "Ko'ngil naylari", "Mash'ala", "Quyosh qo'shig'i" kabi she'riy to'plamlari; "Dilbar - davr qizi", "O'ch", "Baxtigul va Sog'indiq", "Gulnoz", "Guli va Navoiy", "Hamza", "Mashrab" kabi dostoniari; "Boiaik xotiralarim" (avtobiografik), "Boia Alisher", "Nur qidirib" kabi qissalari; "Qutlug' qon", "Navoiy", "Ulug' yo'l", "Oltin vodiidan shabadalar", "Quyosh qoraymas" kabi romanlari; "Mahmud Torobiy" kabi dramasi o'zbek adabiyotining nodir durdonalaridir. Shoir, nosir, dramaturg, olim Oybek *tarjimon* sifatida ham salmoqli ishlarni uddalagan. Jumladan, antik davr xrestomatiyasi, Rim adabiyoti, XVII - XIX asrlar Yevropa adabiyotiga oid hamda A. Pushkinning "Yevgeniy Onegin", M. Lermontovning "Maskarad" kabi asarlarini, shuningdek, arman xalqining "Sosunli Dovud" eposi va boshqa noyob asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilgan. Oybek 1968-yil 1-iyul kuni 17 yil davom etgan og'ir xastalikdan so'ng vafot etgan. Oybekning turmush o'rtog'i Zarifa Saidnosirova kimyo fanlari nomzodi, professor, fan arbobi edi.

U Oybek shaxsiyati va hayoti haqida "Oybegim mening" kitobini yozadi. Unda adib haqida go'zal xotiralar mujassam. Shuningdek, Zarifa Saidnosirova bir-biridan go'zal she'rlar ham ijod qilgan. Shunday she'rlari jamlanib, "Gul bargi" nomi bilan chop etilgan. Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek har uchala adabiy tur (nazm, nasr, drama)da birday mohirlik bilan qalam tebrata olgan ulkan so'z san'atkoridir. Adabiyotimiz tarixida bunday ijodkorlar barmoq bilan

sanarli. Oybek adabiy faoliyatini shoir sifatida boshlagan. Olimlar uning she'rlarini ishqiy, tabiat va harbiy lirikaga bo'lib o'rganishni tavsiya qiadilar. Oybek lirikasi o'z zamondoshlari she'rlaridan

tuyg'u va kechinmalarning real asosga ega ekani bilan farqlanadi. Xususan, uning ishqiy lirikasi yagona ayolga - turmush o'rtog'i Zarifa Saidnosirovaga bag'ishlangani bilan xarakterlansa, tabiat lirikasi bilan bog'liq she'rlari vujudga kelishida 1936-yilda Chimyon bag'rida bir necha oy yashagani muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Shoiming harbiy lirikasi esa **oybek va Zarifa** Ikkinchi jahon urushi yillarida frontda o'tkazgan hayoti (1942-yil dekabr -1943-yil mart)ning badiiy in'ikosidir. Oybekning she'rlari bilan tanishish asnosida u bilan birga goh tabiat



go‘zalligidan zavqlanamiz, goh hijron iztiroblariga taslim bolamiz, gohida dushmanga nafratimizni jilovlay olmay qolamiz. Zero haqiqiy she‘riyatning ta‘sir kuchi ham uning “yuqumli”ligidadir.

### UZOQDAN TURIB

Ko‘zlari cho‘lpondek nozli sevgilim,  
Ko‘zingga bir boqib, men sevdim senil  
Xayoling eslarkan qonaydi dilim,  
Yolboray, go‘zalim, unutm meni!  
Daryolar singari ko‘nglim jo‘shqindir,  
Bir tola soching-la bog‘lanib qoldi.  
Vaslingga yetganim na go‘zal kundir,  
Ayriliq siynamga yong‘inlar soldi.  
Xayoldekyo‘qoldi yayragan chog‘lar...  
Darding-la so‘narkan qora sho‘x ko‘zim.  
Seni erkalaydi dengiz, qirg‘oqlar,  
Ko‘zlari cho‘lpondek nozli sevgilim!

Zarifa Saidnosirova “Uzoqdan turib...” she‘ri haqida bunday yozadi:

*\*Men uchun nihoyatda aziz satrlar... Bu she‘r menga bag‘lshlangani uchungina emas, balki unda ulug‘\* shoiming bufoq suvlaridek musaffo qalbi mavj urib turgani uchun ham sevaman. Bu she‘mi o‘qib, hasratlarim, dardlarim, tashvishiarim erib yo‘qolgandek bo‘ladi”.*

She‘rda ma‘shuqaning *hasrat, dard, tashvishlanni* eritib yo‘q qila oladigan nimalar bor? Topi 1 malarigizni izohlang.

#### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Yorning ko‘ziga bir boqib sevib qolish holati sizda qanday taassurot uyg‘otdi? Bu tabiiy hodisami?
2. “Ko‘zlari cho‘lpondek” tashbehini izohlab bering.
3. Oybek Zarifaga sog‘inchli maktub yo‘llaydi. Maktub ushbu she‘rdan iborat edi. Endi ayting-chi, oshiqning sevgilisiga unutmlik haqidagi o‘tinchi zamirida nimalar yashirin?
4. She‘rdagi xayol, daryo, dengiz, qirg‘oq timsollari orqali shoiming qanday iztiroblari, quvonchlari aks etgan?
5. She‘ming uchinchi bandidan uni O‘zbekiston hududidan tashqarida yozilgan deb xulosa qilish mumkinmi? Nega?

**V. Darsni yakunlash:** o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

**VI. Uyga vazifani e‘lon qilish:** "Uzoqdan turib..." she‘ridan mubolag‘a, tazod kabi badiiy san‘atlarga misollar topib yozing.

**O‘IBDO‘:** \_\_\_\_\_  
(imzo) (sana)

<b>Sana:</b>				
<b>Sinf:</b>				

**Mavzu: Oybek. “Na'matak” she’ri**

**Darsning maqsadi:**

**Ta’limiy:** o‘quvchilarga mavzu bo‘yicha nazariy ma’lumotlar berish, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish, o‘quvchilarga asarni o‘qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g‘oyasini (yoki g‘oyalarini) ochib berishdagi, voqealar rivojidadagi o‘rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so‘zlari, xatti-harakatlariga) e’tibor berish, o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko‘nikmalarini boyitish..

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:**

**Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**

mavjud axborot manbalaridan (kitob, ommaviy axborot vositalari, internet, lug‘at, ma’lumotnomalar, (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish va ulardagi materiallarga ongli munosabat bildirish, xulosa chiqarish, ibrat olish va o‘z faoliyatida qo‘llay olish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish; shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitob bilan ish yurita olish; kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o‘qiy olish va undan foydalana olish;

**Darsning metodi:** og‘zaki (suhbat, savol-javob)

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

<b>№</b>	<b>Bo‘limlar</b>	<b>Vaqt</b>
<b>1</b>	Tashkiliy qism	3 daqiqa
<b>2</b>	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
<b>3</b>	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
<b>4</b>	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
<b>5</b>	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
<b>6</b>	Uyga vazifa	2 daqiqa
<b>Jami</b>		<b>45 daqiqa</b>

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so‘rash:** a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

## NA'MATAK

Nafis chayqaladi bir tup na'matak  
Yuksakda, shamolning belanchagida,  
Quyoshga ko'tarib bir savat oq gul,  
Viqor-la o'shshaygan qoya labida  
Nafis chayqaladi bir tup na'matak...  
Mayin raqsiga hech qoniqmas ko'ngil,  
Vahshiy toshiarga ham u berarfusun.  
So'nmaydi yuzida yorqin tabassum,  
Yonoqiarni tutib oitin bo'sa-chun  
Quyoshga tutadi bir savat oq gul!  
Poyida yig'laydi kumush qor yum-yum...  
Nafis chayqaladi bir tup na'matak...  
Shamol injularin separ chashmadek,  
Boshida bir savat oq yulduz - chechak,  
Nozik salom lari naqadar ma'sum.  
Tog'lar havosining feruzasidan  
Mayin tovlanadi butun niholi.  
Vahshiy qoyalaming ajib ijodi:  
Yuksakda raqs etar bir tup na'matak,  
Quyoshga bir savat gul tutib xursand!



Oybek. Rassom Aziza Mamatova

### Talqin

Rasmga diqqat qiling. Unda she'r bilan bog'liq qanday uyg'unlik sezdingiz? Fikringizni bayon eting.

### Keling, muhokama qilamiz

1. She'r tufayli ruhiyatingizdagi o'zgarishlar haqida gapirib bering. Qanday hislar sizni chulg'ab oldi?
2. "*Shamolning belanchagi*" tashbehini qanday tushundingiz? Izohlab bering.
3. O'shshaygan qoyalar iabida ham na'matakning nafis chayqalib turishida, quyosh va unga tutilgan bir savat oq gulda qanday ramziylik bor deb o'ylaysiz? Nima uchun?
4. Shoir qoyani birinchi badda "*Viqor-la o'shshaygan qoya*", oxirgi badda esa "*vahshiy qoya*", tarzida tasvirlashining sababi nimada? Nima deb o'ylaysiz, shoir bu qoyatoshlardan minnatdormi yoki norozi? She'rdan dalillar keltiring.
5. "*Poyida yig'laydi kumush qor yum-yum...*" misrasi bilan boshlanuvchi bandni o'qib, qanday nozik kechinmalarni tuydingiz? Na'matak poyida kumush qor yum-yum yig'lashining sababini izohlang.
6. She'rning qaysi bandida na'matak obrazi o'zbek kelinchagiga hamohang tasvirlangan?

### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

She'rga diqqat qiling. Undagi qaysi satrlar orqali shoirning Chimyon bag'rida yilning qaysi faslida yashaganini aniqlash mumkin?

**V. Darsni yakunlash:** o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

**VI. Uyga vazifani e'lon qilish:** 1. She'rda qaysi so'z va misralar takror qo'llangan. Ularni aniqlab yozing. So'zlarning takror qo'llanishi she'r mazmuniga qanday ta'sir qilgani va shoirning bundan maqsadi haqida ham fikr bildiring.

2. She'rda na'matakdan tashqari yana qanday obrazlar beir? Ularni sifatlash (yoki fe'l) bilan jadvalga kiriting.

Obrazlar	Qoya			
Sifatlash yoki fe'l	Viqor-la o'shshaygan			

O'IBDO': \_\_\_\_\_ (imzo) \_\_\_\_\_ (sana)

*veb-saytimiz: [Zokirjon.com](http://Zokirjon.com)*

*Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.*

## **Zokirjon Admin bilan**

*90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.*

*Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi*

**38 listdan iborat adabiyot fanidan 9-sinf II chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.**




Telegram kanalimiz:

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

To‘lov uchun: **UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



### **DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.  
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:  
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.  
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.  
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.  
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA**

**HIYONAT QILMANG.**

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!  
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**